

## MUTAHASSISLIK FANLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNI TANLASH MEZONLARI

G'ofurova Malika Pulot qizi

Toshkent kimyo-texnalogiya instituti Menejment va kasb ta'lif fakulteti  
O'qtuvchi:Axmedova Aziza Akmalovna

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mutahassislik fanlarni o'qitish, ushbu jarayonda interfaol metodlardan foydalanish borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Metod, ta'lif, samaradorlik, ta'lif-tarbiya, texnologiya, metod, interaktiv, amaliyot, muammo.

Prezdent Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizning ta'lif-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasini jadallashtirish masalalari muhokamasi bo'yicha videoselektor bo'lib o'tdi.Davlatamiz rahbari ta'kidlaganidek :

“AGAR MENDAN SIZNI NIMA QIYNAYDI ?” deb so'rasangiz , farzamdlarimizning ta'lif va tarbiysi deb javob beraman.

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmogda. Interfaol ta'lif metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdag'i ta'lif muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lif metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lif-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lif metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lif beruvchi tomonidan ta'lif oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lif oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.O'qitishning interfaol usullarini tanlashda ta'lif maqsadi,

ta'lim oluvchilarning soni va imkoniylari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda – ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi: ta'lim samarası yuqoriqbo'lgan o'qish-o'rganish; ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi; ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o'rganilishi; Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega.

Bugungi dars talabada ijodiy qobiliyatni o'stirishi, aqliy salohiyatni kengaytirishi, ilmiy dunyoqarashni tarkib toptirishi va har bir yangilikni to'g'ri qabul qila olishni o'rgatishi kerak. Shunday ekan, darsda o'qituvchi va talaba munosabatlari qanday tashkil etilishi, o'qituvchi darsda o'quv maqsadlarini amalga oshirish uchun metod va vositalarni to'g'ri tanlay olishi g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bugun darsda o'qituvchining asosiy vazifasi darsni boshqarish hisoblanadi. Darsni boshqarish uchun darsda o'quv-metodik ta'minot to'liq bo'lishi kerak. O'qituvchi dars maqsadlarini to'g'ri belgilashi kerak. Darsda o'qitish vazifalari bilan tarbiya vazifalari o'zaro bog'liq bo'lib, muayyan tushunchalar, g'oyalar tarkib topishi natijasida ilmiy dunyoqarash va e'tiqodlar hosil qilishi muhim ahamiyatga ega. Darsda talabalarning erkin, ijodiy ishlashlari uchun sharoit yaratish kerak. Buning uchun darslarning har bir qismi uchun o'quv materialini to'g'ri va aniq tanlash kerak. An'anaviy ta'lim metodlari bilan birga noan'anaviy ta'lim metodlaridan – interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Interfaol metodlardan foydalanganda talabalarning ijodiy ishlashlariga imkon berilishi g'oyat muhim. Interfaol metodlar o'quvchida erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchi (talaba)lar bu metodlardan foydalanganda yangi bilim va tushunchalarni tez va mustaqil o'zlashtirib oladilar. Ular o'z fikrlarining to'g'ri yoki xato ekanligini isbot qila oladilar. Interfaol metodlardan foydalanganda quyidagi talablarga amal qilish lozim: - dars o'quv dasturi asosidagi ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lmos'hish lozim;

- dars maqsadlari amaliyotdagi tajribalarga asoslanib, metodlar qo'llanilganda to'liq hal qilinishi muhim;
- metod barkamol shaxsni tarbiyalash mezonlariga asosan axloq-odob me'yorlariga mos kelishi zarur;
- metod tashkil qilinishi mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lishi kerak;
- interfaol metodlardan foydalanganda didaktik prinsiplarga amal qilingan holda eng kam vaqt sarflashga erishish kerak.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning eng asosiy negizi bu o'qi-tuvchi va talabaning hamkorlikda belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq, ya'-ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishish-da qo'llaniladigan har bir ta'lif texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit ya-rata olsa, ana shu o'qitish jarayonning asosi hisoblanadi.

Mutahassislik fanlarini o'qitishda interfaol metodlarni tanlashning bir nechta mezonlari mavjud. Bu mezonlar quyidagilardir:

1. Talablar va kerakli ko'nikmalarni tushuntirish: Interfaol metodlarni tanlashda muhim bo'lgan birinchi qadam, o'qitishga kerakli talablar va ko'nikmalar haqida tushuntirishdir. Misol uchun, talaba qanday ko'nikmalar bilan ishlashi kerakligini, qaysi dasturlash tillarini bilishi kerakligini aniqlash lozim.

2. Oquvchilarining ilmiy darajasi va o'zlashtirish potensialini baholash: Interfaol metodlarni tanlashda ikkinchi muhim faktor, oquvchining ilmiy darajasi va o'zlashtirish potensialini baholashdir. Bu, oquvchining interfaol metodlarga qanday samarali javob berishi mumkinligini aniqlashga yordam beradi.

3. O'qituvchi tajribasi: Interfaol metodlarni tanlashning keyingi muhim qismi, o'qituvchi tajribasidir. O'qituvchi interfaol metodlarga nima qadar boy keladiganligini bilishi kerak va ularni to'g'ri ishlatishni bilmalidir.

4. O'quv usullariga moslashtirish: Interfaol metodlarni tanlashda o'qituvchi o'quv usullariga moslashtirish zarurati mavjud. Bu, interfaol metodlarni qanday tarzda va qanday bosqichda ishlatishni aniqlashga imkon beradi.

5. Texnologiyalardan foydalanish: Interfaol metodlarni tanlashda tekhnologiyalardan foydalanish muhimdir. O'qituvchi, interfaol metodlarni o'rgatish uchun kerakli texnologiyalardan qanday foydalanishi kerakligini bilishi va ularni o'quv jarayonida qanday samarali qo'llashini bilishi kerak.

## XULOSA

O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash va o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsninmg didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Interfaol ta'lif metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha ta'lif muassasasidagi keng qo'llanyotgan metodlardan biri hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tojimatovich, A. A., Musajanovich, K. M., & Khoshimovich, A. B. (2022). On Approval of the Concept of Education of Youth in the Spirit of Military and Patriotism. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 13, 6-8.
2. Jumakulovna, A. X. (2022). DAVLAT TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(8), 306-308.
3. Hayitov.A.I. "Boshlang'ich ta'lif pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi". "Zuhra Baraka Biznes" nashriyoti. T.: 2021.
4. Yo'dosheva D. Ashurboyeva D. "Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar."- T.: Turon Zamin Ziyo. 2018.
5. Hayitov, A. I., & Miltikboyeva, Z. (2022, May). Methods of organization of native language classes in primary classes on the basis of interactive methods. In E Conference Zone (pp. 11-13).